Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319779

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

BUXORO VILOYATIDA MINTAQAVIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI STATISTIK TAHLILI

SHAMSIYEVA NIGORA RAFIQ QIZI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
Zarmed universiteti Muhandislik-iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi
+998914181407

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatining asosiy iqtisodiy resurslari va ularning samaradorligi rasmiy statistika ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda yalpi hududiy mahsulot, sanoat, qishloq xo'jaligi va investitsiya ko'rsatkichlari o'rganilib, hududiy rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Natijalar mintaqada resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy resurslar, iqtisodiy o'sish, qishloq xo'jaligi, sanoat, statistik tahlil, Buxoro viloyati.

Kirish. Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda mavjud resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir hududning iqtisodiy salohiyati uning tabiiy, mehnat va ishlab chiqarish resurslariga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda hududiy rivojlanishni baholashda statistik tahlilning roli ortib bormoqda. Ayniqsa, rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslangan ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy jarayonlarni obyektiv baholash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, Buxoro viloyati iqtisodiyoti tarkibida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi yetakchi o'rin tutadi. Hududda tabiiy resurslarning mavjudligi, tarixiy ishlab chiqarish an'analari va mehnat resurslari iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasida hududlarni mutanosib rivojlantirish va sanoat resurslaridan samarali foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].Buxoro viloyati respublikaning yirik insdustrial markazlaridan biri bo'lib, bu yerda resurslar samaradorligini xalqaro metodologiyalar, xususan, Milliy hisoblar tizimi (SNA-2008) asosida statistik baholash dolzarb hisoblanadi. [4]. Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda resurslar transformatsiyasi tahlili muhim o'rin tutadi [3]. 2025-yil yakunlari bo'yicha Buxoro viloyatida yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'ati 107,2% ni tashkil etdi .

Tadqiqot jarayonida statistik kuzatish, taqqoslama tahlil va indeksli usullardan foydalanildi. Mintaqaviy resurslar (mehnat va kapital) samaradorligini

Published: 05.06.2026

Cite this article: Shamsiyeva Nigora Rafiq qizi (2026). Buxoro viloyatida mintaqaviy resurslardan foydalanish samaradorligini statistik tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319779

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

baholashda Sh.Shodmonov metodologiyasiga tayanildi [5]. Ekonometrik modellashtirish maqsadida quyidagi ishlab chiqarish funksiyasi qo‘llanildi:

Y=f(L,K)

Bunda Y-yalpi hududiy mahsulot, L-mehnat resurslari, K-asosiy kapital. Ma’lumotlar bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy yilnomalari xizmat qildi [2].

So‘ngi 5 yillikda (2020-2024 yy.) Buxoro viloyati yalpi hududiy mahsulotining (YaHM) o‘sish sur’atlari barqaror dinamikani ko‘rsatmoqda. Quyidagi jadvalda real statistik ko‘rsatkichlar keltirilgan:

1-jadval. Buxoro viloyati YaHM ko‘rsatkichlari dinamikasi (2020-2024 yy)

Yillar	YaHM hajmi(mlrd.so‘m)	O‘sish sur’ati(%)	Sanoat ulushi(%)	Xizmatlar ulushi (%)
2020	35320,0	102,0	21.4	36.8
2021	43069,7	106,5	22.1	37.5
2022	51728,0	105,3	23.5	38.2
2023	61242,6	104,6	24.2	39.4
2024	73434,1	105,6	25.0	40.1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va muallif hisob-kitoblari.

O‘zbekiston milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida yoqilg‘i-energetika va to‘qimachilik majmualari yetakchi o‘rin egallaydi [2].

Viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi oshgan bo‘lsa-da, ba’zi tarmoqlarda fond qaytimi koeffitsiyenti pasayish tendensiyasiga ega, bu esa texnologik yangilanish zarurligini bildiradi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijasida sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi o‘rtacha 12% ga oshganligi kuzatildi. Jahon banki metodologiyasiga ko‘ra , resurs samaradorligi ko‘rsatkichlari rivojlanayotgan mamlakatlarda institutsional sifatga bog‘liq.[4]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Buxoro viloyatida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda xalqaro standartlarni joriy etish bilan bog‘liq konseptual muammolar mavjud. Ayniqsa, mintaqaviy darajada “Yashil iqtisodiyot” indikatorlarini hisoblash tizimi hali to‘liq shakllanmagan [3].

Buxoro viloyatida sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va statistik hisbotlarda xalqaro metodologiyalarni qo‘llash mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida YaHM tarkibida

yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko‘paytiradi. Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamik o‘sishga ega bo‘lsa-da, resurs sarfi yuqoriligicha qolmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va “Qandim” gazni qayta ishlash majmuasi kabi yirik sub’ektlar viloyat sanoatining 60% dan ortig‘ini shakllantiradi [2].

O‘tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda mehnat unumdorligi o‘rtacha yillik 8-10% ga o‘smoqda, biroq bu o‘sish asosan texnologik yangilanish hisobiga emas, balki ish vaqtining intensivligi hisobiga yuz bermoqda.

Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan xalqaro SNA 2008 tizimiga o‘tilishi natijasida Buxoro viloyatida yashirin iqtisodiyot ulushini baholash va nomoliyaviy aktivlar hisobini yuritish takomillashdi [4]. Biroq, hududiy darajada tabiiy resurslar (suv, yer) iqtisodiy qiymatini statistik baholashda metologik bo‘shliqlar mavjud.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Buxoro viloyatida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun faqatgina miqdoriy ko‘rsatkichlarga tayanib bo‘lmaydi. G.S. Ganjiyeva o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, mintaqaviy iqtisodiyotda resurslar samaradorligini baholashda sifat ko‘rsatkichlari (innovatsion faollik, raqamli texnologiyalar ulushi) birinchi o‘ringa chiqishi lozim [3].

Buxoro viloyati mintaqaviy resurslardan foydalanish samaradorligini statistik tahlil qilish natijasida bir qator xulosa va takliflarni keltirish mumkin. Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan hududiy darajada “yashil” statistika indikatorlarining joriy etish lozim. Bu resurs tejash samaradorligini aniq o‘lchash imkonini beradi.

Sanoat tarmoqlarida energiya va xomashyo sarfini kamaytirish uchun innovatsion-klaster tizimini kengaytirish zarur.

Mintaqaviy YaHMni hisoblashda xalqaro standartlarga muvofiq xalqaro standartlarga nomoddiy aktivlar va inson kapitali qiymatini hisobga olish tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar Buxoro viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga va mintaqaviy resurslardan foydalanish samaradorligini 15-20 % ga oshirishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. (2022). “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. PF-60-son.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). “ O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: Statistik to‘plam”.-Toshkent.

[3]. Ganjiyeva G.S.(2023). “Mintaqaviy iqtisodiyotni statistik tadqiq etish metodologiyasi”. Iqtisodiyot va ta’lim, 4-son, 112-118-betlar.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

[4]. World Bank.(2021). “SNA 2008 Implementation and Resource Efficiency in Developing Economies” . International Economic Outlook.
[5]. Shodmonov Sh. Sh., Alimov R.H. (2022). “Iqtisodiy statistika :Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik”.-Toshkent : “Iqtisod-moliya”.
[6]. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. (2025). “Mintaqaviy sanoat va investitsiyalar tahlili : Yillik hisobot”.-Buxoro.

AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR

SIROJ ZARINA RUSTAMBEKOVNA
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti (Dsc)
Zarina36.84@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-7266-3515

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar va ularni statistik tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari yoritiladi. Tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, tabiiy o‘sish hamda aholi tarkibi kabi demografik indikatorlarning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, demografik ko‘rsatkichlar iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni prognoz qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, davlat siyosatini shakllantirishda asosiy axborot manbasi hisoblanadi.
Kalit so‘zlar: demografiya, aholi soni, tug‘ilish darajasi, o‘lim darajasi, migratsiya, tabiiy o‘sish, statistik tahlil, demografik indikatorlar

Kirish

Aholi soni va uning tarkibi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Demografik jarayonlar jamiyatdagi iqtisodiy o‘sish, mehnat resurslari shakllanishi, ijtimoiy infratuzilma rivoji hamda davlat siyosatining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli demografik ko‘rsatkichlarni o‘rganish va tahlil qilish zamonaviy statistik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda demografik jarayonlar global miqyosda sezilarli o‘zgarishlarga uchramoqda. Tug‘ilish darajasining pasayishi, migratsiya oqimlarining kuchayishi va aholining qarish jarayoni ko‘plab mamlakatlarda yangi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois demografik ko‘rsatkichlarni kompleks tahlil qilish va ularning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.[4, 70–105-b]

Demografik indikatorlar nafaqat aholi sonini, balki uning yosh, jins va hududiy tarkibini ham ifodalaydi. Bu ko‘rsatkichlar mehnat bozori, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasini rejalashtirishda muhim asos bo‘lib